

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

**RAHIMBAEVA MUHABBAT DUSHAMBAEVNA
MASOFAVIY O'QITISH VA "MOODLE"
TIZIMIDA INTERAKTIV TESTLARNI
TUZISH ASOSLARI**

**FOUN FORUMNING PEDAGOGIK GRANTLAR TANLOVI LOYIHASI
ASOSIDA TAYYORLANGAM ILMIY-USLUBIY QO'LLANMA**

URGANCH - 2012

Ushbu ilmiy-metodik qo'llanmada Urganch davlat universiteti o'qituvchilari o'zlarining tajribalarida "Moodle" tizimidan foydalanib kommunikatsion sinfda masofaviy mashg'ulotlarini tashkil qilish muammolariga bag'ishlanadi. Uslubiy qo'llanmada "Moodle" tizimida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabi darajasida turli xil testlarni tuzish usullari haqida metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Ushbu ilmiy-uslubiy qo'llanma uzlusiz ta'lim tizimi o'qituvchilari va talabalariga, hamda o'z tajribalarida "Moodle" masofali o'qitish tiziminidan foydalanishni va shu borada o'z malaka va tajribalarini oshirishni xohlagan tinglovchilar uchun mo'ljallangan.

Ushbu ilmiy-medodik qo'llanma Urganch Davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashida muhokama qilinib nashr etishga tavsiya etildi (№6 dekabr oyi 2012 yil).

Bugungi kunda milliy informatsion tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Islom Karimov

S o' z b o sh i

Ma'lumki, hayotni anglash, uni o'rganish informatsiyalarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan informatsiyalarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi. SHuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'lim tizimini takomillashtirishda yangi informatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish – bugungi kunning talabiga aylandi.

Ta'lim islohotlarining asosiy dasturamal asoslari bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlar va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" zamonaviy bilimlar tizimiga keng yo'l ochish va ta'limni takomillashtirishda yangi informatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanishni dolzarb vazifa sifatida qo'ydi. Axborot almashinuvining xilma-xil ko'rinishlari va usullarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi o'qitishni texnik vositalari yordamida amalga oshirilishiga keng yo'l ochib bermoqda. SHulardan eng samaralisi masofaviy o'qitish usulidir. Bugungi kunda O'zbekistonda Oliy ta'lim muassasalarida, maktab va kollejlarda talabalarga zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim berilib, o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan (AT) dan foydalanish, talabani ijodiy salohiyatini rivojlanishiga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ta'lim jarayonida talabani o'quv faoliyatini rivojlanishini, o'quv tarbiya jarayonini takomillashuvini, ta'liming sifati va samarasini oshiruvchi asosiy omil sifatida qaralmoqda.

KIRISH

Bugungi kunda talabalarga sifatli talim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi-kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan, hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr taqozasi bo'lib qolmoqda.

Aynan shu maqsadda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etishimiz ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Moodle" tizimi zamonaviy informatsion texnologiyalar va masofali o'qitishning mumkin bo'lgan unumli texnologiyalaridandir. Yangi texnologiyalar negizida (masalan, "Moodle" tizimida) individuallashtirilgan ta'lim metodikasini ishlab chiqish, talabaning bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish vazifalarini ham hal qiladi. Ta'lim jarayonida masofali o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmuni, shakllari va usullarining o'zgarishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida talabalarni masofaviy o'qitish va uning ahamiyati

Masofadan o'qitish uslubi – bu Internet orqali mustaqil o'qish demakdir. Mustaqil o'qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan o'qitishda o'quvchi o'ziga qulay vaqtida va hattoki, ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin. Masofaviy o'qitishda o'qish muddati o'quvchining o'ziga bog'liq, ya'ni talaba yoki malakasini oshiruvchi pedagog ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. Talaba berilgan programmani qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma olishga muyassar bo'ladi. Programmani o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

Masofaviy ta'limda (MT) tinglovchlar mustaqil, erkin va ixtiyoriy bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi; talaba va tinglovchi o'rtasidagi aloqa hissiy munosabatlardan holi bo'lganligi uchun tinglovchilarining o'zlashtirish darajasi bevosita uning intellektual tomonlariga bog'liq; ko'rgazmalilikning keng imkoniyatlaridan foydalanish ya'ni eshitish, ko'rish, idrok qilish, esda saqlab qolish, tushunish mushohada qilishda texnik jarayonlarning faol ishtiroki yordamida egallanayotgan bilim mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Keys texnologiya - masofaviy ta'limda audiovideo va multimediali o'quv uslubiy materiallar majmuasini aks ettirsa, TV texnologiya - o'quv metodik ma'lumoitlarni televidenie orqali yetkazish mazmuniga, Internet texnologiya - masofaviy ta'limning jahon axborot ta'lim tarmoqlariga kirish, integratsiya va o'zaro tamoyillariga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, masofaviy ta'lim jarayoni ham o'z navbatida ta'limiy va rivojlantruvchi xususiyatlaridan tashqari tarbiviyl xarakterga ega bo'lib, shaxs axloqiy sifatlari-intizomlilik, onglilik, talabchanlik, hurmat va e'tiborlilik, o`quvlilikni shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Masofaviy o'qitishda asosiy e'tiborni o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratiladi. CHunki o'quv-uslubiy materiallarning sifati masofadan o'qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O'qish tartibi quyidagicha: o'qituvchi kurs bilan tanishtiradi va topshiriqlar beradi. O'quvchi ko'rsatilgan manbalar bilan ishlab topshiriqlarni bajaradi va o'qituvchiga yuboradi. O'qituvchi uni tekshiradi, zarur holda ko'rsatmalar beradi. SHu tartibda kurs mavzulari o'rganiladi. Muzokara Internet xizmatlari orqali amalga oshiriladi. O'qish jarayonida talaba elektron darsliklardan, elektron kutubxona va forumlardan, videokonferentsiyalardan, on-line kurslaridan va Web-sahifalardan foydalanadi. Bu individuallik o'quvchida qiziqish uyg'otadi va uni o'qishda faollikka, ijodiy yondashuvga rag'batlantiradi. Ularni to'g'ri tashkil etish, o'qitish sifati va samarasini belgilaydi.

O'quv materiallari turlari. Masofaviy o'qitishda quyidagi o'quv materiallaridan foydalilaniladi:

1. Darsliklar (modul),
2. Audio, videomateriallar,
3. Elektron va multimedia darsliklari,
4. On-line kurslari.

Darsliklar tashkil etish – Darslik - bu o'qitiladigan kurs bo'yicha to'liq axborotlarga ega bo'lib, mavzular bo'yicha nazorat savollari va o'zlashtirishni nazorat qiluvchi testlarni o'z ichiga oladi. SHuning uchun darslikni **modul** deb atash qabul qilingan. Modul kursning to'liq hajmini o'zida aks ettirib ma'ruzalar, amaliy mashqlar, test va tavsiya etilgan adabiyotlardan iborat bo'ladi. Modulni kompyuter vositasida MS Word, Page Maker, CorelDraw dasturlari vositasida tashkil etish mumkin.

Audio va videomateriallarni yaratish - bu o'tilayotgan darslarni magnitofon, videomagnitofon va videokameralar vositasida yozish degani. So'ngra taqdimotini Power Point dasturi orqali amalga oshirish mumkin.

Elektron darsliklar yaratish - multimedia texnologiyasi asosida darsliklar tashkil etish axborot texnologiyasi taraqqiyotining eng yuqori samarasi deyish mumkin. Bu usulni tadbiq etishda kichik hajmdagi bir diskda katta hajmdagi axborotlarni «jonlantirgan» holatda aks ettirsa bo'ladi. Boz ustiga yozilgan axborotlarni ko'rish, eshitish va o'qish mumkin bo'ladi. Xullas, multimediali darslik axborotlarni matn, rasm, grafik ko'rinishda va video holatlarda ifodalaydi. Elektron darsliklar tayyorlash uchun maxsus dasturiy ta'minot mavjud bo'lib, bular Macro Media Director, ToolBook.

On-line kurslari – bu masofaviy o'qitishning eng kerakli elementlaridan biri. Internet texnologiyalaridan WWW asosiy o'rinnegi egallab, masofaviy o'qitishda axborotlar muhitini tashkil etadi. CHunki WWW texnologiyasi ixtiyoriy gipermedia, multimediali va ma'lumotlar bazasiga kira oladi(turli plug-in modul va interfeyslar asosida). Foydalanuvchi on-line kursi bilan o'ziga qulay vaqtda va joyda ish yurita olib kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bunday asinxron o'qitish tizimi masofaviy o'qitishning birinchi fazasi hisoblanadi. Buning uchun biron-bir o'qitish kursi bilan tanishuv lozim.

.Masofaviy o'qitish – kommunikatsiya va kompyuterizatsiya hosilasi bo'lib, uning mohiyatida o'qitishning eng ilg'or usullarini Respublika bo'yicha keng joriy qilish masalasi ilk rejada turadi. SHu ma'noda masofaviy o'qitish ta'lim-tarbiya tizimida o'qitishning hozirgi talablariga javob berishi kerak.¹ Bizning nazarimizda, masofaviy o'qitishning yutuq va kamchiliklari parallel ravishda namoyon bo'lmoqda. YUtuqlari quyidagilardan iborat:

-birinchidan, masofaviy o'qitish muayyan ilg'or o'qitish usulini keng ommalashtiradi;

-ikkinchidan, bizning sharoitimizda poytaxtda jamlangan ilmiy potentsialdan joylarda unumli foydalanish uchun imkoniyat tug'diradi;

-uchinchidan, Respubika bo'yicha o'qitishning yaxlit metodologiyasini shakllantiradi;

-to'rtinchidan, o'qitish sohasida ilmiy-amaliy axborot almashinish tezlashadi;

-beshinchidan, moliyaviy tejamkorlikka olib keladi.

Kamchiliklar ham mavjud:

- birinchidan, masofaviy o'qitishning didaktik qonuniyatları ishlab chiqilganicha yo'q;

- ikkinchidan, masofada turib saboq olayotganlarning holati va xatti-harakatieni to'liq darajada nazorat qilib bo'lmaydi;

-uchinchidan, o'qituvchi va talaba (o'quvchi) o'rtasida emotsiyal munosabat bo'lmaydi. Zero, masofaviy o'qitish texnologiyasidan tezkor axborot almashish maqsadida foydalanish kutilgan samarani berishi shubhasiz. Bugungi kunda poytaxtimizda va viloyatlar markazlarida o'ziga xos ilmiy potentsial markazlari shakllandi. Bu imkoniyatdan Respublika bo'yicha foydalanishda masofaviy o'qitish muhim o'rinni tutadi. SHu ma'noda masofaviy o'qitishning metodologiyasi va ilmiy asoslarini yanada aniqlashtirib olish maqsadga muvofikdir.

Masofaviy o'qitishning maqsadi maqbul va aniq bilim berishga asoslanishi

¹ Мавлонова Р., Тўраева О., Холикбердиев К. Педагогика. – Т.: “Ўқитувчи”. 2001.-б.105-112.

kerak. Buning uchun nazariy bilim berish uch xususiyatga asoslanishi kerak: 1) eng to'g'ri ma'lumotlarni berish; 2) didaktik printsiplarga amal qilish; 3) muayyan mezonlarga asoslanish. Masofaviy o'qitish bilim berishning uch komponentini qat'iy hisobga olishi kerak. Bular: 1) ma'lumotlarning asosligi va ixchamligi; 2) ma'lumotlarning qabul qilishga qulayligi; 3) ma'lumotlarning fikr qo'zg'ashga asoslanishi. Bunday yo'l tutish masofadan turib saboq olayotgan shaxs ehtiyojini qoniqtiradi. SHu ma'noda bizning fikrimizcha, masofaviy o'qitish ta'lim oluvchida muayyan muammo bo'yicha fikr qo'zg'ashga asoslanishi kerak. Bu texnologiyada shablon yo'l tutish o'zini oqlamaydi va masofaviy o'qitish usuliga nisbatan ishonchsizlik uyg'otadi. Demak, masofaviy o'qitishning uchdan bir qismini muhokama tashkil qilishi kerak. Muhokama vositasi bilangina bu metodda ko'zlangan samaraga erishish mumkin (2).

Masofaviy ta'limning pedagogik-psixologik xususiyatlari pedagogik texnologiyalarning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatiga mos kelgan holda, ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berishga xizmat qilishi bilan xarakterlidir. Bugungi kunda masofaviy o'qitishning didaktik qonuniyatlarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Bu masalada bizning nazarimizda, masofada turib saboq oluvchilarni emotSIONAL boshqarish maqbul ko'rindi. Buning uchun o'qituvchi ma'ruzaning matni aniq, lo'nda va qiziqarli bo'lishiga, nutqning ravon va ta'sirchanligiga, turli replikalar vositasida saboq oluvchilarni jalg qilish usullariga diqqat qilishi lozim bo'ladi.

Masofaviy o'qitish – davr ehtiyojidir. CHunki ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'qitish ishlarini jahon andozalariga moslashti-rishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqoza etmoqda. SHu ma'noda fakultetlararo, universitetlararo va xalqaro masofaviy o'qitishni yo'lga qo'yish o'qitish ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada tajriba hosil qilishning ikki yo'li bor: 1) milliy ta'lim tizimida masofaviy o'qitish tajriba – sinov ishlarini davom ettirish, eng ilg'or usullarni ommalashtirish; 2) masofaviy o'qitish bo'yicha jahon modellarini

chuqur o'rganish. Bularning barchasi masofaviy o'qitishning milliy modelini yaratishga olib keladi.

TA'LIM SOHASIDA INTERNET TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI METODIK TIZIMI

Yuqori sifatdagi va yuqori texnologik axborotli o'qitish muhitini yaratish, asosan, ta'lism tizimining texnologik bazasini tubdan modernizatsiyalash, jamiyat talablariga javob beradigan ochiq ta'lism tizimiga o'tish imkoniyatini yaratadigan yetarlicha murakkab bo'lgan texnik masala sifatida ko'rildi. Shu bilan birga, axborot ta'lism muhitini yaratish faqat texnik masala emasligini inkor etib bo'lmaydi. Uni yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish uchun barcha ta'lism tizimining ilmiy-uslubiy, tashkiliy va pedagogik potensialini to'liq ishga solish kerak bo'ladi. Shu munsabatda, zamonaviy axborotli ta'lism muhiti ishlatalayotgan sharoitda pedagogika munosabatlarini ham hisobga olmoq lozim.

Axborotli ta'lism muhiti ta'riflari to'plamining tahlilidan shu xulosaga kelish mumkinki, bu axborot, texnik, o'quv-uslubiy podsistemalar jamlanmasi bo'lib, o'quv jarayoni va uning qatnashchilarini ta'minlashga maqsadli qaratilgandir.

Axborot ta'lism muhiti – pedagogik tizim va uning ta'lismotidan iboratdir, ya'ni, moddiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, me'yoriy-xuquqiy, boshqaruv va marketing tizim ostilaridir.

O'qitish metodikasiga muvofiq har bir o'quv guruhi uchun o'quvchilarning jamoa vositasi kabi elektron auditoriyasi yoki forumlari yaratilishi (ochilishi) mumkin. Bunda o'quv yurtining virtual vakilligi (VV) o'quv jarayonini olib borish uchun zarur bo'lgan o'quv va ma'muriy resurslarni shakllantiradi, ushbu resurslar u yoki boshqa fan bo'yicha o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ishlab chiqarish moduli deb nomlanadi va zaruriyatga qarab yaratiladi. Bunday modullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ayrim fanlar bo'yicha o'quv guruhining ChAT (on-line auditoriyalar -

seminarlari maslahatlar);

- fanlar bo'yicha telekonferensiylar (forumlar) (on-line auditoriyalar - seminarlari maslahatlar);
- e'lonlar taxtasi;
- yakka tartibda (ta`riflanadigan) maslahatlar tizimi.

O`quv muassasaning VVdagi bunday modullar soni o`qituvchilar ehtiyojlari va ular tomonidan amalga oshiriladigan o`qitish metodikasi bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish kerak.

Shunday qilib, axborot-ta'lim muhiti pedagogik tizim kabi quyidagi funksiyalar yuklanadigan o`qituvchining yangi rolini belgilaydi:

- bilish jarayonini muvofiqlashtirish;
- o`qitiladigan fanni to`g`irlash;
- yakka tartibda o`qitish rejasini tuzishda maslahat berish;
- o`quv rejasi, o`quv loyihibariga rioya qilish.

O`qituvchi-konsultant (yoki tyutor) o`z bilimlarini namoyish qilish, texnologik, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarni olish, maksimal pedagogik natijalarni olishi kerak.

Zamonaviy jamiyatda Internet orqali masofaviy ta`limning rivojlanishiga quyidagi ikki sababni ko'rsatish mumkin:

1. Yosh avlodlarning ta`lim potensialiga bo'lgan talabning ortishi, axborot texnologiyalarini o`zlashtirish, jamiyatdagи bilimlarni tezkor almashinuvi, insonni butun umri davomida o'qishi kerakligi, uzlusiz ta`limni zaruriylashishi.
2. Internet tarmog'inining va kompyuter texnologiyalarining rivoji, ishlarni kompyuter va kompyuter dasturlari orqali bajarilishi soddalashishi.

Internetning o`qituvchi uchun qulay bo'lgan omillari qaysilar ?

Bu omillarini asosiyalarini sanab o'tamiz:

- ✓ Tijorat hamda notijorat tashkilotlarining Internet tarmog'idagi masofaviy ta`limini o`zlashtirishi jaroyonida o'z malakasini oshirish.
- ✓ Mustaqil ravishda tarmoqdagi axborotlar orqali o'z malakasini oshirish.
- ✓ Dars o'tish uchun Internet tarmog'idan materiallar qidirish.

- ✓ Hokimiyat serveridan normativ hujjatlar qabul qilish.
- ✓ Yangi pedagogik texnologiyalarga oid axborotlar olish.
- ✓ Talabnomalar jo'natish, konferensiya, tanlov va grantlar, hisobot va konferensiyalarga chiqish haqidagi axborotlarni olish.
- ✓ Dasturiy ta'minot olish.
- ✓ O'z ishlarini chop qilish va o'z ishlari to'g'risida ma'lumotlar yuborish.
- ✓ Hamkasb va do'stlar bilan xat yozishmalar. Fikrdoshlar va hamkasblarni boshqa shaharlar va davlardan qidirish.
- ✓ Internet magazinlarida savdo qilish.
- ✓ Ish qidirish.

Internet texnologiyalarini ta'lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o'tish mungkin:

- ✓ bu fanlarni o'zlashtirilishni yaxshilanishi;
- ✓ Kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar,
- ✓ o'rghanishga bo'lgan munosabatni yaxshilanishi;
- ✓ mustaqil ta'lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi;
- ✓ amaliy malaka samaradorligini oshishi.

Vaqt o'tishi bilan Internetda eng muhim fanlarning eng yaxshi ma'ruzalarini chop qilinishi kutilmoqda. O'qituvchilar bu ma'lumotlardan o'z darslariga asos sifatida foydalanishlari mumkin. Ma'lumotlar jo'natishda tezlikning ortishi bugungi matn ko'rinishidagi Internetni multimediyali interaktiv telekanalga aylanishi boshorat qilinmoqda. Bugungi kunda Internetdan ajralishlik mukammal bo'lgan ta'limdan mahrum bo'lishlikdir.

Yangi metodlar va texnologiyalar bilan birga olib boriladigan masofaviy o'qitish metodi nazariy pedagogika va ta'lim amaliyotiga yangi tushunchalar va atamalarni kiritadi, ularga:

- virtual klass (guruh);
- O'qitishni quvvatlash (o'quvchilarni quvvatlash);
- O'quv telekommunikatsion loyihalar;
- Teskari aloqa;

- Dialogli texnologiya;
- Kompyuterli aloqa;
- Telekonferensiya;
- Kordinator, moderator, telekommunikatsion loyihaning fasilitatori (telekonferensiya) va boshqalar.

Telekommunikatsiyaviy o'quv loyihasi- Masofaviy ta`lim(MT) transformatsion modelning birdan-bir kelajakli shakli bo'lib, qandaydir modelli maqsadga yetish uchun yo'naltirilgan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga asoslangan. U o'quvchilar oldiga qo'yiladigan qandaydir ilmiy yoki ishlab chiqarishni modellashtirish maqsadidagi loyihadan iborat. Bunday modeldan maqsad o'quvchilarning loyihalari faoliyatida u to'plovchi bo'lib, ularda jamoat bo'lib ishslashdagi bilim va ko'nikmalarini faollashtiradi.

O'quv telekommunikatsion loyihaning zaruriy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- uning vaqtli aniqligi va chegaralanganligi (ikki haftadan uch oygacha)
- loyihaning barcha qatnashchilari orasida axborot almashtirish uchun kompyuterli telekommunikatsion tarmoqlar va dasturli vositalardan foydalanish, ular ko'pincha virtual yoki kvazivirtual guruhni tashkil etadi.
- loyiha koordinatori tomonidan o'rnatiladigan o'quvchilar orasidagi aniq faoliyatning zarurligi.

Masofaviy o'qitishdagi teskari aloqa—mos kibernetik tushunchaning umumlashuvi-masofadagi o'quvchiga uni baholash bosqichida, pedagog tomonidan yuboriladigan axborotlar oqimi, uning harakati, o'quvchining muvaffaqiyatiga pedagog reaksiysi va uni faoliyatining bahosi (ma'qullash yoki ma'qullamaslik) va boshqalardan iborat.

Rejali va ratsional o'rnatilgan teskari aloqa ahamiyatining juda kattaligi aniqlangan, chunki u o'quv faoliyatining aniq va musbat shakllanishini kuchaytiradi. An'anaviy o'qitish jarayonida teskari aloqa mimik harakatlar, tovush intonatsiyasi va boshqalar bilan aniqlanadi. MTda esa u pedagog va o'quvchining ko'pchilik aloqa kanallari bilan ulangani sababli teskari aloqa

pedagogik texnologiyaning aniqlangan va rejalashtirilgan elementi hisoblanadi. Telekonferensiya - tarafdar odamlar jamiyati orasida matnli xabarlar almashish usulidir.

Kompyuterli aloqa bu - aloqani tashkil qilish uchun kompyuterlar va telekommunikatsion tarmoqlaridan foydalanuvchi usullar majmui. Kompyuterli aloqa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Tarmoqdan foydalanuvchi pochtali, qutili xabarlarni jo'natish imkonini beruvchi elektron pochta;
2. Xabarlarni barcha qatnashchilarga bir vaqtda uzatish imkonini beruvchi telekonferensiyalar;
3. Uzoqdagi axborot manbalariga kira olish, masalan, kutubxona zaxiralariga, ma'lumotlar bazalariga, serverlarga;

MTni rivojlantirish tendensiyasining tayanch holatlari quyidagilardan iborat:

- texnologiyalarni bir vaqtda kengaytirish va yaqinlashtirish;
- o'qituvchilar va o`quvchilar orasidagi munosabatlarni o'zgartirish;
- o'quv muassasalari orasidagi munosabatlarni o'zgartirish;
- turg'un an'analarning paydo bo'lishi.

Hozirgi kundagi MT doirasiga kirgan eng asosiy atamalar: tirik interaktiv muhitlar, qisqa to'lqinli televiedenie, audio grafika, zichlashtirilgan video, telekonferensiyalar, audio konferensiyalar va boshqalar. Hozirgi interaktiv muhitlar o'quv auditoriyalarining kengayishiga imkon bermoqda.

Yaqin kunlarda MT fazosida yangi texnologiyalarning paydo bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas. Ularning deyarli barchasi raqamlidir. Ularning tarkibiga gepermedia dasturlari kiradi, bu esa o'quvchining axborot manbaidan foydalanishi va shuningdek, INTERNET orqali mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazasini va hattoki, ma'lumotlar kompleksini, o'zi nazorat qilish imkonini yaratadi, bu esa kelajakda o'quvchiga video kurslar, audiomateriallar, ma'lumotlar bazasi va boshqa dasturli ta'minot bilan o'z uyi yoki ish joyidan ulanishgiga imkon yaratadi.

Global kompyuter tarmoqlaridan foydalanuvchi kompyuterli

telekommunikatsiyalarni tezlik bilan rivojlanuvchi axborot texnologiyalarining so'nggi ko'rinishidan iborat deyish mumkin.

Telekommunikatsiyaning eng sodda ko'rinishi elektron pochtadan iborat bo'lib, undan katta muvaffaqiyat bilan ta'lif jarayonida foydalanishi mumkin, chunki u:

1. Turli fanlar o'qituvchilarining tajriba almashinishini osonlashtiradi va rag'batlantiradi;
2. Undan foydalanayotgan o'quvchilarning o'quv kursiga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
3. O'quvchilarning kommunikativ amaliyotini kengaytiradi, yozma nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Elektron pochta odatdagilardan o'zining xususiyati bilan farqlanadi:

- a) kompyuter yordamida xatni tayyorlash jarayonini tezlashtiradi va ijodiylashtiradi.
- b) xatni jo'natish va olish ish joyida kompyuter yordamida amalga oshiriladi.
- v) xatning manzilga yetkazilishi juda tez (Yer sharining qarama — qarshi nuqtasiga 4 — 5 soatda yetkaziladi).

Masofaviy ta'limda elektron pochtadan foydalanish, odatda, telekommunikatsion loyiha shaklida ham olib boriladi. O'quv telekommunikatsiyaviy loyiha ma'lum mavzuga bag'ishlanadi. Uning tarkibiga tayyorlash va uzatish bo'yicha o'quvchilarning turli ko'rinishdagi faoliyatları va kompyuterli telekommunikatsiyalar bo'yicha o'quv axborotining olinishi va tahlili kiradi.

MT o'quvchilarning o'ziga xos bilimlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p psixologik chegaralarni olib tashlaydi va ularga samimiy bo'lismi imkonini yaratadi. O'z fikrlari ustida ishlash mumkinligi o'quvchilarga og'zaki muloqotdagi kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon yaratadi. MT shaklining ochiqligi o'quvchilar dunyoqarashining planetalar darajasigacha ko'tarilishiga olib keladi. Elektron pochta yoki INTERNET ning Web—tizimi bilan ishlayotgan har bir insonda barcha qit'alar va kontinentlarning yaqinlik

to'g'risidagi sezgisi paydo bo'ladi. MT- bu yetarlicha arzon. Bunda oliv o'quv yurtlaridagi kommunal harajatlar uchun va o'qituvchilarning soatlari uchun to'lamasdan hamda boshqa qiyinchiliklardan holi bo'lган holda o'z uyi yoki ish joyida o'tirib bilim olishning mumkinligi. Demak, MT zaruriy va nozik ish. Yaqin keljakda ko'pchilik tarmoqlar orqali o'qish imkoniga ega bo'ladi. Bizningcha, MT va kunduzgi o'quv markazlaridagi ta'limlar bir- birini to'ldirish imkonining yaratilishi hozirgi zamon fan- texnikasining eng buyuk yutug'idir.

MODUL TEXNOLOGIYALARI AOSIDA O'QITISHNI TASHKIL ETISH

Keyingi paytda keng qo'llanilayotgan, ta'limni rivojlantirishning samarali usullaridan biri – fanlarni modul texnologiyalari asosida o'qitishdir. Ma'lumki an'anaviy ta'limda o'qitish maqsadlari asosan bilim berishga, modul texnoloiyasida esa ta'lim oluvchini faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Modul- bu fanntng bir biriga o'zaro bog'liq fundamental tushunchalarini o'rGANISHGA yo'naltirilgan va didaktik tamoyil asosida tuzilgan o'quv materiallari birligi bo'lib, unda fan bo'yicha o'quv dasturlari qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tarzda tabaqlashtiriladi. Natijada bosqichma-bosqich o'qish imkoniyati yaratiladi.

Pedagoglarning fikricha, agar modul texnologiyasi asosida o'qitish to'g'ri tashkil etilsa, ta'limning xar qaysi bosqichida talabalar yangi o'quv materiallarini o'zlashtiradi, ko'nikma va malakasi takomillashadi. Modul algoritm asosida ishlab chiqariladi va quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: aniq maksad, nazariy bilim, amaliy mashg'ulot, uslubiy ko'rsarma yo'l-yo'riqlari, nazorat, o'zlashtirilgan bilim, malakani sinash, baxolash va xakozo.

Modul texnologiyasida o'qish quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi:

- modulli o'qitishning dastlabki shart-sharoitlarini taxlil etish
- o'quv didaktik materiallarni va o'qitish vositalarini tayyorlash

- nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish
- o'qituvchi talabalarning olgan nazariy va amaliy ko'nikmalarini baholash.

Yuqorida keltirilganlarning barchasi ta'lim oluvchini fikrlash darajasini kengaytirish, yuz beradigan voqealarni sababini aniqlash , izlanishni o'rgatishga qaratilgan.

Modul tizimining moxiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchilar ta'limning aloxida birlik modullarini izchil xolda ketma-ket o'zlashtiradilar.

Ta'limda modul tizimini qo'llash eski modul birligi o'rniga tezda yangisini ishlab chiqish va yangisini qo'llash imkoniyatini beradi.

Modul tizimi asosida ta'lim berishning afzalligi shundaki, e'tibor ko'proq ta'lim oluvchiga uning o'z ustida mustaqil ishlashi xamda o'z-o'zini nazorat qilishga qaratiladi.

Modul tizimi asosida o'qitishning davomiyligi ta'lim oluvchining tayyorgarligiga va kasbiy malakasini qay darajada egallash istagiga bog'liq.

1. Modul texnologiyasi asosida o'qitishni tashkil etishda dastlabki shart-sharoitlarni taxlil etish:

Birinchidan, o'quvchilarining tayergarlik xolati taxlil qilinib, ularning bilimi, o'quv materiallarini o'zlashtirish darjasini va qobiliyati aniqlanadi. Chunki ularning ta'lim olishida o'ziga ishonchi, qobiliyati, shaxsiy xolati va eshi muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Talabalarining qobiliyatiga ko'ra tabaqlashtirish asosida ularga fanni mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, mavjud shart sharoitlar taxlil etiladi. U uz ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

Xuquqiy shart sharoitlar. Bunda ta'lim jarayoniga taaluqli o'quv rejasi va dasturlar o'r ganiladi.

O'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq shart sharoitlar. Bunda modul tarkibiga kirgan nazariy va amaliy mashgulotlar tashkil qilinadigan joy va boshqa sharoitlar taxlil qilinadi.

Texnikaviy sharoitlar. Bunda texnik jihoz va moslamalar, o'quv va yordamchi audio vizual vositalarning mavjudligi xolati o'r ganiladi.

Uchunchidan o'tiladigan fanlar taxlil qilinib, modullar mazmunini belgilashda zarur bo'ladigan turli manbalar, ya'ni o'quv materiallari va boshqalar o'r ganiladi. Masalan , darslik, ko'llanma va boshqa adabiyotlar.

2. Modullning o'quv maqsadi va mazmunini belgilash. Modul texnologiyasi asosida o'qitishda dastlab, o'rganiladigan fanning o'qitish maqsadi va mazmuni, modullarning maqsadi va mazmuni belgilanadi. O'quv maqsadlari yakunida ta'lim tarbiya natijasi sifatida talaba erishishi lozim bo'lган bilim, malaka va shaxsiy ko'nikmalar belgilanadi. O'quv maqsadlari tarmoq ta'lim standarti talablari asosida ishlab chiqiladi.

Modulni o'rganish maqsadi qanchalik aniq bo'lsa, unga erishuvchanlik shunchalik oson bo'ladi.

3. Modul bo'yicha didaktik materiallar va o'quv vositalarini tayyolash. O'quv didaktik materiallar va o'quv vositalari deyilganda bilim va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi axborot manbaalari tushuniladi.

Moduli texnologiya asosida o'qitishda o'quv didaktik materiallar sifatida nazariy va amaliy darslarda matnli, vizual vositalar, masalan o'quv adabiyotlar, kartoteyka va ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, uslubiy ko'rsatma materiallardan foydaniladi.

4. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Modul tarkibiga kiritilgan nazariy mashg'ulotlarni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi.

Qiziqtirish (Motivatsiya uygotish). Masalan mavzuga bog'lik qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki xizmatni tushuntirish bilan dars boshlanadi.

Ma'lumot (bilim) berish. **O'qtuvchi** o'quvchilarga yangi materialarini tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozara, o'quv suxbati uyushtiradi. Yangi modul birligi o'rganishdan avval o'tilgan modul birliklari qisqacha umumlashtirilgan xolda takrorlanadi.

Modul birligiga mos tarqatma materiallar beriladi. Bu o'quv jarayonini osonlashtiradi. Ularni modul birligiga monan ravishda birin-ketin tarqatish va ko'rib chiqish uchun yetarli vaqt ajratiladi.

O'zlashtirish bilimlarini mustaxkamlash uchun topshiriqlar berish. Talabalarga

tafakkur qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar beriladi. Xar bir topshiriq yoki mashqdan keyin bajarilgan ishlar baholanadi. Natijalarni guruxda ochiqdan-ochiq muxokama qilish yaxshi natija beradi. Modulni o'rganish oxirida yakuniy suxbat uchun vaqt ajratish kerak.

5. Talabalarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakasini baholash. Talabalar bilimi va ko'nikmalarini o'quv maqsadlariga muvofiq holda muntazam baholash kerak. Baholash xuquqiy, pedagogik va psixologik tamoyillarga xamda Davlat ta'lim standartlariga asoslanadi. Baholash orqali butun modulni o'rganish jarayoni va uning barcha komponentlari maqbulligini tekshirib ko'rildi. Bu bilan moduli o'qitish kutilayotgan natijani berayotgani yoki bermayotgani aniqlanadi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya qo'llaniladigan texnologiyalarning barchasi xam ta'lim oluvchilarni chuqur bilim olishlari va talab darajasida ko'nikmaga ega bo'lishlariga qaratilgan.

MOODLE TIZIMIDA QO'LLANILADIGAN TESTLARNING TURLARI

“Test” atamasi birinchi marta amerikalik psixolog J. Kettel tomonidan 1890 yilda kiritilgan. “Test” atamasi inglizcha “test” so'zidan olingan bo'lib, **tekshirish, nazorat, sinov** ma'nolarini bildiradi. Pedagogikada “test” atamasi o'ziga xos shaklga va mazmunga, turli qiyinlik darajasiga ega bo'lgan, o'quvchilar o`zlashtirishi darajasini xolisona baholash imkoniyatini beradigan topshiriqlar tizimidan iborat.

Kompyuterda test sinovlarini o'tkazish bu - o'qituvchiga qisqa vaqt ichida talabalarni bilimini haqiqiy baholash imkonini beradi. Yaxshi tuzilgan test talabalarni muntazam ravishda o'qish jarayoni davomida o'qish va izlanishga undaydi. Testni dars paytida yoki darsdan tashqari vaqtida mustaqil ta'limda tashkil qilish va o'tkazilishi mumkin. O'z navbatida kompyuter testlari talabalarda ijobiy taassurot qoldiradi. Test o'tkazishning ustun tomoni bu kutilayotgan natijalarni tez va avtomatik ravishda etishiradi. Talabalarning

bilim darajasini tez aniqlab beradi. Test o'tkazish jarayoni albatta tashqi ta'sirlarsiz talaba o'zining mustaqil fikrini bayon qilgan javoblariga asosan olib boriladi.

Shuning uchun ham hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda o'quv jarayoni kompyuter texnologiyalari yordamida boshqarilmoqda va test texnologiyalarini qo'llash mumkin bo'lган bir qancha tizimlar ishlab chiqilgan. Bu tizimlardan foydalanish bugungi kunda yaxshi samara bermoqda. Shunday tizimlardan biri bu- "Moodle" tizimidir. Bu tizim bizga testni barcha turlarini qo'llash orqali talabalar bilimini nafaqat optimal baholabgina qolmay, balki, ularni qayta-qayta o'qib o'rganishga undaydi. Talaba o'z bilim darajasini test sinovlari yordamida mustahkamlaydi va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga harakat qiladi. Bu tizimda talaba o'z ustida ko'p ishlaydi. Bunda esa tanlanadigan testni turi muhimdir. Bunday imkoniyatlarni Moodle tizimida yaratish va talabalarga bu tizimda ishslash imkoniyatini berish mumkin.

Test topshiriqlari – ta'lim natijalarini xolisona nazorat qilishning didaktik va texnologik vositalaridan hisoblanadi.

Test sinovlari yordamida barcha o'quvchilarning bilimini bir vaqtida tekshirish, ularni mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishga, mustaqil o'qish ko`nikmalarini rivojlantirishga o'rgatish, intizomini mustahkamlash kabi imkoniyatlar yaratiladi.

Birinchi bosqich testlar:

1. Tanib olish testlari - "ha" yoki "yo'q, "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb javob beriladigan savoldan iborat bo'ladi. Topshiriqda albatta, o'quvchi bilishi yoki xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim bo'lgan ob'yekt haqida so'raladi. Bu kabi testlarga biz To'g'ri/Noto'g'ri shakldagi tetlarni misol keltirishimiz mumkin.
2. Farqlash testlari - bir yoki bir necha to'g'ri javobga ega bo'lgan testlar. Bu turdag'i testlarga biz Yopiq turdag'i ko'p tanlovli testlarni misol keltirishimiz mumkin.

3. Qiyoslash testlari - o'rganilgan obyektlarda umumiylit yoki farqlarni topish so'raladi, bunda qiyoslanayotgan xususiyatlar yoki parametrlar topshiriq shartida berilgan bo'ladi.

4. Bir necha variantli test-topshiriqlar - topshiriq sharti va barcha kerakli boshlang'ich ma'lumotlar beriladi, javoblar variantlari keltiriladi. O'quvchi berilgan topshiriq yechimini va to'g'ri javob qaysi ekanligini ko'rsatishi kerak.

Ikkinchi bosqich testlari:

1. Ma'lumotni eslash testlari - test savoli beriladi, javob variantlari berilmaydi. O'quvchi javob uchun kerakli ma'lumotlarni eslash asosida to'g'ri javobni topishi kerak.

2. To'ldirish testlari - topshiriqda har xil shakldagi ma'lumot – matn, formula (tenglama), chizma yoki grafik beriladi va o'quvchi tushirib qoldirilgan ma'lumotni to'ldirishi kerak.

3. Konstruktiv testlar - o'quvchi javobni topish uchun, masalan, formulani yozishi, teoremani isbotlashi yoki grafikni chizib berishi lozim.

Uchinchi bosqich testlar

1. Ijodiy qobiliyat testlari - o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni yangi sharoitlarda, amaliyotda ishlatalish so'raladi.

Moodle texnologiyasida qo'llaniladigan testlarning bir qancha turlari bor va ular quyidagilar:

- Yopiq turdag'i testlar,
- Ochiq turdag'i testlar(qisqa javob testlari),
- Moslikni tekshirish testlar,
- Raqamli testlar,
- Ta`riflash testlar,
- To`g'ri/Noto`g'ri javobli testlar,
- Hisoblanayotgan testlar,
- Esse testlar.

Yopiq turdag'i testlarda- o'quvchi javob berishi kerak bo'lgan savol yoziladi. Bu savolga javob variantlari ham yoziladi, ya'ni bitta variantga aniq,

to'g'ri javob yoziladi. Boshqa javoblarga esa kalit so'z yoki formula, belgi, simvol, harflarni o`zgartirib, tushirib qoldirib noto'g'ri javob variantlari tuziladi. Topshiriq shartidan keyin to'g'ri javob va 1-3 ta to'g'rige o'xshagan, lekin to'g'ri bo'limgan javob variantlari keltiriladi.

Ochiq turdag'i testlar(qisqa javob testlari)da- o'quvchi javob berishi kerak bo'lgan savol yoziladi. Bunday test savollarini yechganda o'quvchining vazifasi yetishmayotgan kalit so'z yoki ma'lumotni yozish. Savolni shunday tuzish lozimki, topilishi kerak bo'lgan kalit so'z gapning oxirida bo'lsin, aks holda savolning mazmunini anglash qiyinlashadi. Topshiriq tinglovchi uchun topshiriqni bajarishga ko'rsatma bilan boshlanadi. Masalan, "tushirib qoldirilgan so'zni toping", kabi.

Moslikni tekshirish testlarida- o'quv materialiga asoslangan holda, bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lumotlardan ikkita ustun tuziladi. O'ng tarafdag'i ustunda so'zlar chap tarafdag'i ustundan bir nechta ortiq bo'lishi ham mumkin. Javoblarni tekshirish qulay bo'lishi uchun chap tarafdag'i ustunni raqamlar bilan, o'ng tarafdag'i ustunni harflar bilan belgilang. O'quvchi o'ng tarafdag'i ustunda berilgan ma'lumotlarga chap ustundagi qaysi ma'lumotlar mos kelishini topishi kerak.

Raqamli testlar. Bu turdag'i testlar asosan qisqa javobli testlarga o'xshaydi. Farqi shundaki, raqamli testlarda javob varianti kiritilganda mumkin bo'lgan xatolik bo'lishi mumkin. Qisqa javobli testlarda esa bunday holat yo'q. Masalan Raqamli testlarda to'g'ri javob varianti 30 soni bo'lsa, agar xatolikni 5 deb olsak unda 25 soni bilan 35 orasidagi sonlardan bittasini to'g'ri deb qabul qiladi.

Ta`riflash testlar. Bu tipdag'i savollar asosan test hisoblanmaydi, ya'ni javob variantlari bo'lmaydi. Uni vazifasi biror bir tekstni ko'rsatishdan iborat. Biz bunday tipdag'i ko'rsatmalarni keyingi savollar guruhini tasnifini ko'rsatish uchun ishlatishimiz mumkin.

To`g'ri/Noto'g'ri javobli testlar. Bu turdag'i testlarda savolga javob sifatida Rost, Yolg'on ya'ni To'g'ri, Noto'g'ri javoblaridan bittasi tanlandi.

Javob sifatida rasm bo'lishi ham mumkin.

Hisoblanayotgan testlar. Bu tipdagi testlarda savol formula asosida kiritiladi. Savolga javob hisoblashni bajarilgandan keyin beriladi. Savolga kiritilgan formula shablon yordamida yoziladi. Shablonlar abs, cos, sin, log10, log, th, max, min, atan, sqrt kabi ko'rinishda ham bo'lishi mumkin.

Esse testlari. Bu tipdagi testlarda savol matn yoki tasvir ko'rinishida bo'ladi. Talaba javobni Esse formatida yozadi. Esse savolini tuzish uchun uchta maydonni to'ldirish kerak:

- Savol sarlavhasi
- Savol matni
- Teskari aloqani

Talabani savolga bergen javobini o'qituvchi o'qib chiqib keyin baholaydi.

Baholab bo'lgandan keyin esa o'qituvchi talaba bergen javobga izoh yozadi.

Bu tipdagi testlarning boshqa tipdagi testlardan asosiy farqi ham shunda.

MOODLE DA TEST TUZISH TEXNOLOGIYASI

Moodle da test tuzish uchun dastlab lokal tarmoqdagi IP adresni <http://192.168.8.9/moodle> orqali Moodlega kiramiz. Chiqqan oynadan o'z kerak bo'lgan kursni tanlaymiz. Masalan Axborot texnologiyalari kursini tanlab, shu kurs uchun test savollarini tuzamiz.

The screenshot shows a Mozilla Firefox browser window displaying the Moodle system of Urgench State University. The title bar reads "Moodle System of Urgench State University - Mozilla Firefox". The menu bar includes "Файл", "Правка", "Вид", "Журнал", "Закладки", "Инструменты", and "Справка". The toolbar has icons for back, forward, search, and other functions. The address bar shows the URL "http://dl.urdu.uz/moodle/". Below the address bar, there are links for "Самые популярные", "Начальная страница", "http://usergate/image...", "Лента новостей", "Mail.Ru", and "Новая закладка". The user is signed in with "mail.ru" and "Texnologiyalari". A search bar with "Найти!" and a magnifying glass icon is at the bottom right.

Moodle System of Urgench State University

Kurslar kategoriyalari

- Axborot Texnologiyalari**
- [Matematika va Amaliy Matematika](#)
- [Filologiya](#)
- [San`at](#)
- [Ijtimoiy Fanlar](#)
- [Tabiiy Fanlar](#)
- [Kimyo-Texnologiya](#)
- [Kimyo](#)
- [Pedagogika - Psixologiya](#)

Kursni qidirish: Go

Moodle da test tuzishni ikkita usuli bor.

1– usul: Boshqarish bloki orqali

2-usul: Menyuning ”Kurs elementini qo’shish” bo’limi orqali

ikkala usulda ham test savollarini kiritishdan oldin quyidagi ketma-ketlikni bajarish lozim:

- test parametrlarini o’rnatamiz
- test savollarini kiritamiz
- tuzilgan savollarni testga(kategoriya) joylashtiramiz
- zarur bo’lganda testni va test parametrlarini tahrirlaymiz.

Dars vaqtida o’tkaziladigan testlar albatta dars jadvaliga qo’yilgan va kompyuter xonalarida o’tkaziladigan fanlar uchun qulaydir. Darsdan tashqarida o’tkaziladigan testlarni quyidagi jarayonlar ketma-ketligi orqali o’tkazish tavsiya etiladi.

1. O’qituvchi testni tashkil qilish va o’tkazish parametrlarini tarmoqdagi o’zining o’quv kursiga joylaydi.
2. O’qituvchi talabalarga test mazmunini, test o’tkaziladigan joyini, test o’tkazish vaqtini va sanasini, urinishlar soni va baholash usulini e’lon qiladi.

3. Test tugagandan keyin o'qituvchi tarmoqda test natijalarini tahlil qiladi.

Test o'tkazilayotgan paytda o'qituvchi test o'tkaziladigan xonada bo'lishi shart emas, chunki bu jarayonda talaba o'zi mustaqil fikrlab testni yechishi lozim. Moodle da test tuzish uchun dastlab kategoriya yaratamiz, yaratilgan kategoriyaiga test savollarini alohida-alohida joylaymiz. Test savollarini alohida yaratish savollarni variantlarda takrorlanmasligini ta'minlab beradi.

Demak:

1. Kategoriya ochiladi
2. Test savollari tuziladi
3. Test savollari testga o'tkaziladi

The screenshot shows the Moodle IAT101 Test creation interface. At the top, there is a breadcrumb navigation: Moodle UrsU ► IAT101 ► Testlar ► Axborot ► Tahrir qilish Test. Below the breadcrumb, there is a horizontal menu bar with several tabs: Muqadima, Natijalar, Ko'rib chiqish, Tahrir qilish (which is highlighted with a red oval), Test, Savollar, Kategoriyalar, Import, and Eksport. The main content area has two sections: 'Bu savol javobi(quiz)dagи savollar' (This question is a quiz) and 'Hozirda birorta savol qo'shilмаган' (No questions have been added yet). To the right, there is a sidebar titled 'Savollar bankи(ombori)' (Question bank) with a dropdown menu set to 'Informatika va AT uchun ilk tanlangan holat (8)'. A checked checkbox says 'Quyи kategoriyalarda (subkategoriyalar, podkategoriyalar) jo' (Include in categories (subcategories, sub-subcategories)).

Test tuzish usullari

1-usul. Bu usulda test savollarini tuzish uchun «Boshqarish» blokidagi «Savollar» bandini tanlaymiz.

Moodle UrsU > IAT101

Mavzular sarlavhalari

- Forum yangiliklari
- Yopiq test (ko'p tanlovli testlar)
- Yopiq
- INFORMATIKA
- INFORMATIKA

Keng zamrovli qidiruv

Boshqarish

- Tahrir qilish
- O'matishlar
- Rollarni tayinlash
- Baholar
- Guruhlar
- Rezerv nuxsa olish
- Tikash
- Import
- Tozalash(dastlabki holatiga qaytarish)
- Hisobotlar
- Savollar**
- Faylar
- IAT101 dan chetlash
- Foydaluvchini haqida

Mening kurslarim

9:45 06/06/2012

«Savollar» menyusining «Yangi savol yaratish» bo'limini «Tanlash» darchasidan test turini tanlaymiz

IAT101: Savollarni tahrir qilish - Mozilla Firefox

Informatika va AT

Savollar banki(ombori)

Kategoriya nomi: Informatika va AT uchun ilk tanlangan holat (8)

Quyi kategoriyalarda (subkategoriyalar, podkategoriyalar) joylashgan savollarni aks ettirish

Esksi savollarni ham ko'rilsatish

Show question text in the question list

'Informatika va AT' kontekstida birlgilida ishlataluvchi savollar uchun ilk tanlangan kategoriya.

Yangi savol yaratish:

Amal	Savol nomi	Tur
<input checked="" type="checkbox"/>	Hisoblanayotgan test	2/2
<input checked="" type="checkbox"/>	Hisoblanayotgan test	2/2
<input checked="" type="checkbox"/>	Ta'riflash testi	2/2
<input checked="" type="checkbox"/>	Moslikni tekshirish testi	2/2
<input checked="" type="checkbox"/>	Yopiq shakldagi test	2/2
<input checked="" type="checkbox"/>	Raqamli test	2/2
<input checked="" type="checkbox"/>	Qisqa javobli testi	2/2
<input checked="" type="checkbox"/>	To'g'ri/Noto'g'ri javobli testlar	2/2

Barchasini tanlash / Barcha tanlanganlarni olib tashlash tanlangan:

Informatika va AT uchun ilk tanlangan holat (8)

Готово

Yangi test tuzish uchun test savollarini kiritamiz:

The screenshot shows the Moodle Question Bank interface. At the top, there are tabs for 'Savollar' (Questions), 'Kategoriylar' (Categories), 'Import', and 'Eksport'. Below the tabs, a search bar contains the text 'Savollar banki(ombori)'. A dropdown menu is open under the 'Kategoriya nomi' (Category name) field, which is set to 'Informatika va AT uchun ilk tanlangan holat (8)'. The dropdown menu lists various question types: 'Taniash...', 'Hisoblanayotgan', 'Taniflash', 'Esse', 'His', 'Mostlikka', 'Ta', 'Mos', 'Qisqa javob', 'Yop', 'Raqamli', 'Raq', 'To'g'ri/nato'g'ri', and 'Qisqa javob testi'. To the right of the dropdown, there is a column labeled 'Tur' (Type) with icons for each item.

Moodleda testlarni quyidagi turlari bor:

- Hisoblanayotgan
- Ta'riflash
- Esse
- Mostlikka
- Yopiq shaklda (ko'plikdagi tanlov)
- Qisqa javob
- Raqamli
- Moslik boyicha tasodifiy savolni topish
- To'g'ri/noto'g'ri

2-usul. Buning uchun ushbu oynaning o'ng burchagidagi «**Tahrir qilishni**» bo'limini tanlaymiz

Moodle UrSU > IAT101

Mavzular sarlavhalari

- Forum yangiliklari
- Yopiq test (ko'p tanlovli testlar)
- Yopiq
- INFORMATIKA
- INFORMATIKA

Tahrir qilish

Yangiliklar forumi
Yangi mavzu qo'shish...
(Yangi bo'lmlar yo'q)

Kutlayotgan voqealar
Sodir bo'ladigan voqe...
Kalendarga o'tish...
Yangi voqe...

Oxirgi amallar
Friday, 8 June 2012, 10:32
AM (UZ bilan) kurs elementari
Polniy otchet o poslednix
deystviyax
Sizing oxirgi kirishingizdan
beri hech narsa sodir bo'lmaadi

Keyin «Kurs elementini qo'shish» darchasidan «Test » ni tanlaymiz. Bu darcha quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Moodle UrSU > IAT101

Mavzular sarlavhalari

- Forum yangiliklari → ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ
- Yopiq test (ko'p tanlovli testlar) → ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ
- Yopiq → ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ
- INFORMATIKA → ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ
- INFORMATIKA → ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ ⓘ

Resurs qo'shish...

Kurs elementini qo'shish...
Kurs elementini qo'shish...
Anketa
Chat
Dars
Forum
Glossary
Ma'lumot ombori
Scorm/AICC
So'rov
Test
Topshiringlar
Faylani yuklashni kengaytirilgan shakli
Saytdagi matn(Javob b'to'xt tekst holatida)
Oddiy tayini yulash
Saytdan tashqaridagi faoliyat(Javob b'to'xt saytdan tashqari)
Vazifalar
Wiki

Tahrir qilishi yakunlash


Yangiliklar forumi
Yangi mavzu qo'shish...
(Yangi bo'lmlar yo'q)

Kutlayotgan voqealar
Sodir bo'ladigan voqe...
Kalendarga o'tish...
Yangi voqe...

Oxirgi amallar
Friday, 8 June 2012, 10:32
AM (UZ bilan) kurs elementari
Polniy otchet o poslednix
deystviyax
Sizing oxirgi kirishingizdan
beri hech narsa sodir bo'lmaadi

Natijada test parametrlarini to'ldiruvchi shakl ochiladi va u quyidagi

ko'rinishda bo'ladi.



Biz bu oynada yangi test savollari uchun nom kiritamiz, bu nom biz yaratmoqchi bo'lgan testni nomi bo'ladi. Keyingi ishlar davomida biz shu nom ostida yangi test savollarini qo'shishimiz mumkin bo'ladi.

Nomni kiritganimizdan so'ng oynamizning "**Muqaddima**" degan darchasiga tuzmoqchi bo'lgan testimizni parametrlarini o'rnatamiz. Masalan bu test qanday tipdagi test bo'ladi, qaysi sohaga tegishlilagini va boshqalarini kiritib o'tamiz:

«Vaqtni chegaralash» bo'limida test sinovini boshlash vaqtini, testni yakunlash vaqtini

«Ko'rsatish» bo'limida bitta sahifada joylashadigan savollar sonini;

«Urinishlar» bo'limida urinishlar sonini;

«Baholar» bo'limid baholash usulini, jarima solish tartibini;

«Himoya» bo'limida bitta asosiy ekranda ishslash va aksincha holatlarni kiritamiz.

Dastur oynasining pastki qismidagi bo'limlardan bittasini tanlash **«Saqlash va kursga qaytish»**, **«Saqlash va ko'rsatish»**, **«Bekor qilish»** orqali ishni

davom qildiramiz.

«Saqlash va kursga qaytish» parametri tanlansa quyidagicha oyna hosil bo`ladi.

Informatika va AT

The screenshot shows the Moodle IAT101 course interface. On the left, there's a sidebar with various navigation links like 'Odamlar', 'Kurs elementlari', 'Forumlar', 'Testlar', etc. The main content area has a heading 'Mavzular sarlavhalari' which is circled in red. Below it, there are three items: 'Forum yangiliklari', 'Yopiq test (ko'p tanlovlivi testlar)', and 'Yopiq'. At the bottom right, there are two dropdown menus: 'Resurs qoshish...' and 'Kurs elementini qoshish...'. A 'Go' button is also visible.

Bu oynada biz yaratmoqchi bo`lgan test nomi «**Mavzular sarlavhasi**» menyusida paydo bo`ladi, ya’ni yaratmoqchi bo`lgan testlarimizni biz shu nom ostida kirib yaratamiz.

«**Saqlash va ko`rsatish**» parametrini tanlasak quyidagicha oyna hosil bo`ladi.

Informatika va AT

The screenshot shows the 'Tahrir qilish Test' page. The top navigation bar includes 'Muqadima', 'Natijalar', 'Ko'rib chiqish', 'Tahrir qilish' (which is circled in red), 'Test', 'Savollar' (which is also circled in red), 'Kategoriylar', 'Import', and 'Eksport'. The main content area has a heading 'Savollar banki(ombori)'. It shows a table with columns 'Amal' and 'Savol nomi'. The table contains several rows of test types: Hisoblanayotgan test, Hisoblanayotgan test, Ta'riflash testi, Moslikni tekshirish testi, Yopiq shakldagi test, and Raqamli test. There are also dropdown menus for 'Kategoriya nomi' and 'Sort by type, name'. On the far right, there are icons for 'Tur' (language).

Tanlangan kategoriya uchun yangi savolni yaratish uchun dastlab yaratiladigan testni turi tanlanadi.

- Kategoriya nomi
- Quyi kategoriyalarda (subkategoriyalar, podkategoriyalar) savollarni aks ettirish
- Eski savollarni ham ko'rsatish
- Show question text in the question list

'Informatika va AT' kontekstida birlgilikda ishlataluvchi sa tanlangan kategoriya.

Yangi savol yaratish

Amal

Savol

Buning uchun hosil bo'lgan oynadagi yangi savol yaratish bo'limini tanlash oynasiga kiriladi va shu joydan jaratilayotgan testni turi tanlanadi.

“Bekor qilish” parametrini tanlasak, bosh sahifaga qaytiladi va unda quyidagicha oyna hosil bo'ladi.

